

KRIPTAVALYUTANING ISHLASH MEXANIZMI, IQTISODIYOTGA TA`SIRI, AFZALLIK VA KAMCHILIKLARI

Kenjaeva Durdona Ravshan qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Magistratura bo`limi, 2-bosqich talabasi

urdonakenjaeva2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kriptavalyuta o`zi nima, u qanday ishlaydi, iqtisodiyot uchun kriptavalyutaning qonuniy tarzda joriy etilishi qanday oqibatlarga olib keladi kabi savollarga javob berilgan hamda kriptavalyutaning afzallik va kamchiliklari, risklilik darajasi o`rganib chiqilgan

Kalit so`zlar: Kriptavalyuta, mayning, blokcheyn, bitkoin, satoshi, onlayn savdo, tranzaksiya.

МЕХАНИЗМ РАБОТЫ КРИПТАВАЛЮТЫ, ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ, ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ

Аннотация. В данной статье раскрыты такие вопросы, что такое криптовалюта, как она работает, каковы последствия легального введения криптовалюты для экономики, изучаются преимущества и недостатки криптовалюты, а также уровень риска.

Ключевые слова. Криптовалюта, майнинг, блокчейн, биткойн, сатоши, онлайн продажи, транзакция

THE WORKING MECHANISM OF CRYPTOCURRENCY, ITS EFFECTS TO THE ECONOMY, ADVANTAGES AND DISADVANTAGES

Abstract. This article defines cryptocurrency and explains how it works. In addition, it addresses the possible consequences of legal introduction of cryptocurrency to our economy. It also explores the advantages and disadvantages and risk levels of cryptocurrencies.

Key words. Cryptocurrency, mine blockchain, bitcoin, satoshi, online trading, transaction.

KIRISH

Zamonamiz rivojlanib borgani sari barcha sohalarga, jumladan, iqtisodiyotga ham yuksak texnika va texnologiyalar kirib bormoqda. Xususan, banklarda odamlarning yashash sharoitini osonlashtirish maqsadida bir necha bosqich talab etadigan to'lov amaliyotlarini bir urinishda amalga oshirishga keng urg'u berilmoqda. Mijozlarning bank binosiga kelmasdan turib hisob raqam ochishlari, pul o'tkazmalarini bajarishlari, onlayn savdo qilishlari, masofadan turib kredit xizmatlaridan foydalanishlari oddiy holga aylanib bormoqda. Hattoki virtual pullar ham yaratildi. Bunga misol kriptavalyutadir. Kriptavalyuta -bu hech qanday moddiy ekvivalenti yo'q va ma'lumotlar bazasidagi qaydlar jamlanmasidan iborat valyutaning virtual ko'rinishidir[1]. O'tkazmalar uchun servisning egalariga hech qanday komissiya to'lovi mavjud emas. To'lovlar blokcheyn, ya'ni bloklardan iborat zanjir yasab, markazlashmagan holda amalga oshadi. Tranzaksiyalar to'g'ridan - to'g'ri hisob raqam egasining "hamyoni"ga borib tushadi. Bilamizki, an'anaviy bank tizimida esa pul amaliyoti avval bosh bank nazoratdan o'tgach, qabul qiluvchi hisob raqamiga o'tkaziladi, ya'ni bank markazlashgan tizimga bo'ysunadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kriptavalyutalar borasidagi nazariyalar kundan kunga rivojlanib bormoqda, ammo hali uning qonuniy jihatlari to'liq ishlab chiqilmagan. Shunday bo'lsa-da, kriptavalyutalar borasida bir qator olimlarning o'z izlanishlari va tajribalaridan kelib chiqib foydalanuvchilar uchun yozilgan adabiyotlari mavjud. Julian Xospning "Kriptavalyuta haqida", Renat Valiyevning "Treyderlik sa'nati", Nataniel Popporning "Raqamli oltin- bitkoinning g'aroyib tarixi", Seyfiddin Amusning "Pulning qisqacha tarixi", Aleksey Markov va Aleksey Antonovning "Kriptavayumatika 2.0", Dmitriy Morozning "NFT.O'zimiz pul yaratamiz", Melani Svonning "Blokcheyn- yanqi iqtisodiyot sxemasi", Pol Vinyaning "Kriptavalyuta epoxasi" nomli bir qator iqtisodiy asarlari shular jumlasidandir. Ushbu adabiyotlarda kriptavalyuta tarixi, rivojlanishi, afzalliklari, kamchiliklari, statistikasi, kelajak bashorati, texnologiyaning ishlash mexanizmi, mayning fermalarini yaratish, qonuniylashtirishda ahamiyat berilishi lozim jihatlari yoritib berilgan.

NATIJALAR

Kriptavalyuta ilk bor 2009-yil Satoshi Nakomoto tomonidan yaratilgan, ammo u ma'lum shaxsmi yoki ishchi guruhmi degan savol haligacha sirligicha qolmoqda. 2010-yil 22-may kuni Lazzlo nomli 15\$ AQSH dollari turadigan 2 dona pitsasiga 30\$ topolmay, 10 000 B evaziga sotib olinishi bilan esa ilk savdo amalga oshirilgan. 2010 yillarda 1 B=0.003\$ ga eng bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda eng yuqori cho'qqi 1B=60 000\$ ga yetdi. [2]Bundan ko'rinib turibdiki, kriptavalyutaga bo'lgan qiziqish mana man degan aksiyalardan ham yuqori ko'rsatkichni bermoqda.



1-rasm. Bitcoinning 2018-2022 yillarda birjadagi dinamikasi[3]

Hozirgi kunda kriptavalyutalarning 100 ga yaqin turlari mavjud. Bitcoin, Efirium, Cardano, Solana, FTX Token, Lit Coin, Manero, TRON, Omg New York, Tezos shular jumlasidan. 2023- yil mart holatiga ko'ra, 1Bitcoin=28 583.5\$AQSH dollarini tashkil etmoqda.

Bitcoin deb nomlanuvchi kriptavalyutada maksimal o'sish 2021-yil o'rtalariga to'g'ri keladi, ya'ni 1B=60 000 \$ ga yetdi. Amerikaning Tesla, Microsoft, Apple, Amazon va bir qator obro'li banklari ham bunday ko'rsatkichga erisha olmagan. Xo'sh, Bitcoinning bu darajaga yetishida qanday omillar sabab bo'ldi:

-2020-2022 yillarda Covid-19 pandemiyasi davrida insonlar onlayn haridlarni amalga oshira boshladi, bankka bormasdan turib to'lovlarni amalga oshirish, dunyoning

istalgan chekkasidan haridlar amalga oshirish imkoniyati, onlayn virtual hamyonlar bilan ortiqcha tranzaksion soliqlar, xizmat xaqining yo`qligi;

- Birinchilardan bo`lib AQSH, Italiya, Ispaniya, Yaponiya kriptavalyutalar faoliyatiga ruxsat bergani;

-Microsoft, PayPal kabi yirik kompaniyalarning kriptavalyutaga qiziqish bildirgani;

-Ilon Mask Tesla mashinalarini endi Bitcoinga sotishini ma`lum qilgani bo`ldi deb hisoblashmoqda mutaxassislar.

Ammo, 2022-yilning boshiga kelib Bitcoin kriptavalyutalarida keskin tushish kuzatildi. 1B= 17000 \$ AQSH dollariga teng bo`lib qoldi. Bunga sabab esa o`rganishlar natijasida shuni ko`rsatdi:

-AQSHning "Silk Road" 2011-2013 yillarda noqonuniy odam savdosi bilan shug`ullanuvchi kompaniyasi ishini ko`rib chiqish yakunlangani va natijada ushbu kompaniyaga tegishli bo`lgan 50 000 B miqdoridagi Bitcoinini musodara qilingani uchun investorlar o`zlaridagi kriptavalyutalarni ham sotib yubora boshlaydi;

- Binance va FTX kriptavalyutalari o`rtasidagi nizo.

MUHOKAMA

Katta miqdordagi kriptavalyutalarga ega shaxslar "kitlar" deb ataladi. Ular o`z pullarini virtual hamyonlarda saqlashadi. Kriptavalyutalar oldi-sotdisi bilan shug`ullanuvchi birjalar mavjud (www.investing.com).

Mayning fermalar haqida juda ko`p qulog`imizga chalinmoqda. Mayning-bu tranzaksiyalarni to`playdigan va ularni bloklarga aylantiradigan tarmoqdagi tugun. Bir qancha kompyuter protsessorlarining ona platalarini jamlagan holda mayning fermalarini yaratish mumkin. Bunda asosiy sarf bo`ladigani elektr energiyasi sanaladi, chunki 24soat ishlab turishini ta`minlash lozim.

Blokcheyn- bloklardan iborat zanjir bo`lib, o`ziaga kelib tushgan tranzaksiyalarni maxsus kodlar bilan bloklar zanjirini yaratadi, birgina xatolik butun sistemaning ishdan chiqishiga sabab bo`ladi, hamma o`tkazmalar ko`rinib turadi, ammo kimga tegishli ekani anonim saqlanadi. Hisob-kitoblar "satoshi"larda amalga oshiriladi. Uning qiymati 0.00000001 ga teng.

Internet tarmog`idagi axborot resurslarini monitoring qilish jarayonida bugungi kunda O`zbekiston fuqarolariga kriptavalyutalar bilan litsenziyasiz faoliyat yuritishi ko`payib borayotganini kuzatish mumkin. Bunday noqonuniy faoliyat yuridik javobgarlikni bo`yniga olmaganligi va qonuniy nizomi mavjud bo`lmagani sababli bir qator jinoyatlar kelib chiqishiga sabab bo`lishi mumkin.

Ma`lumot uchun, Prezidentimizning 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832 sonli qarori bilan 2023-yil 1-yanvardan boshlab O`zbekiston fuqarolari va yuridik shxslari kriptavalyutalar sotib olish, sotish yoki ayirboshlash bo`yicha operatsiyalarni faqat milliy provayderlar orqali qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirishlari mumkinligi belgilab o`tilgan[4].

XULOSA

Kriptavalyutalar, ya`ni virtual pullardan foydalanishda bir qator afzalliklarini ko`rib o`tamiz:

- to`lov amaliyotlari va pul o`tkazmalarini barcha kuzata olishi imkoniyati borligi sababli mamlakatda korrupsiyani oldini olishga erishish mumkin;
 - davlat haridlarini ham yaqqol ko`rish imkoniyati tu`giladi;
 - mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o`ynaydi;
 - yaxshigina daromad qilish imkoniyati;
 - soliqlar va xizmat haqining mavjud emasligi;
 - to`lov va pul o`tkazmalari tezkorlikda amalga oshira olish.
- Shu bilan birgalikda kamchiliklarini sanab o`tsak;
- algoritmgacha asosan, jami 21 000 000 gacha “bitcoin” topish mumkin, bundan so`ng yetishtirish to`xtatiladi. Oqibatida nima bo`lishini hech kim bilmaydi.
 - hamyon egalari haqida ma`lumotlarni bilib bo`lmaydi, natijada noqonuniy pul aylanmasi, jinoyatchilik, firibgarlik, odam savdosi, terrorizm, narkobiznesni moliyalashtirish avj olishi mumkin;
 - kriptavalyuta real pullarga o`xshab doimiy rezerv bilan ta`minlanmagan, ya`ni tizimga shikast yetgan taqdirda pullarni qaytarish imkonsiz bo`lib qoladi;
 - pulning aniq massasini aniqlash imkoniyati yo`ligi sababli inflyatsiya kuchayishi va moliya tizimiga yomon ta`sir etishi mumkin;
 - davlat tomonidan huquqiy himoyalangan;
 - istalgan shaxs pul ishlab chiqara olish imkoniyatiga ega bo`ladi;
 - prognoz qilish ilojsiz;
 - risk darajasi yuqori.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Julian Xosp “О криптовалюте” 2022 yil “Питер” nashriyoti;
2. Renat Valiyev “ Искусство трейдинга”; 2020 yil Москва “Альпина” nashriyoti;
3. Nataniel Popper “Цифровое золото” 2018 yil, “Диалектика” nashriyoti;
4. Seyfiddin Amus “Краткая история денег” 2019 yil, Москва “Манн, Иванов и

фербер” nashriyoti;

5. Aleksey Markov va Aleksey Antonov “Kriptvayumatika 2.0”;

6. Dmitriy Moroz “NFT.Рисуем себе денег”; 24.02.2022 yil soni “SelfPub” elektron jurnal;

7. Svon “Blokcheyn- yanqi iqtisoqiyot sxemasi” 2019y;

8. Pol Vinya “Эпоха криптоавалют” 2018 yil, Москва “Манн, Иванов и фербер” nashriyoti;

9. www.xabar.uz

10. www.investing.com

11. www.litres.ru